

TURLI TIZIMDAGI TILLARDA KIRISH BO‘LAKLAR VA ULARNI IFODALOVCHI
SINTAKTIK VOSITALAR**Qosimova Xusnuraxon Oybek qizi***ADChTI tayanch doktaranti*

Annotasiya: *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida kirish bo‘laklarining qiyosiy tadqiqi va kirish bo‘laklarni ifodalovchi sintaktik birliklarning qo‘llanilishiga bag‘ishlanadi. Kirish bo‘laklar hozirgi zamon tilshunosligi sintaksisida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kirish bo‘laklar to‘g‘risida ko‘p ishlar olib borilganligiga qaramay, kirish bo‘laklarining sintaktik va grammatik hususiyatlari hali aniq yechimga ega emas. Ishimizning maqsadi ham ingliz va o‘zbek tillarida kirish bo‘laklari va ularni ifodalovchi sintaktik vositalarini qiyosiy tadqiq qilishdan iborat.*

Tayanch so‘z va iboralar: *kirish so‘zlar, kiritmalar, kirish birikmalar, kirish gaplar, tirkamalar, parentaksema.*

Kirish bo‘laklar haqidagi nazariy qarashlar xilma-hilligi bilan ajralib turadi. D. Jamoldinova o‘z tadqiqot ishlarida tilshunoslikda kirish bo‘laklar to‘g‘risidagi qarashlarni ikki davrga bo‘lish mumkinligini ta’kidlagan(3:19-21).

Birinchi davri XIX asrning birinchi yarmidan XX asrning 40-yillarigacha bo‘lgan davr va ikkinchi davri esa XX asrning 40- yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan davr. Birinchi davrda M.V.Lomonosov, N.I.Grech va A.X.Vostokov ilmiy ishlarida kirish bo‘laklar va kiritmalarni bir tushuncha sifatida o‘rganishgan(1:215). Keyinroq esa Yevgraf Filomafitskiy va A.M.Peshkovskiy tomonidan kiritma va kirish so‘zlarning farqi tushuntirishga harakat qilingan(7:122).

Ikkinchi davrida esa I.I.Sheboleva, D.V.Malyavin, T.R.Kotlyar, I.A.Kiryuxina, A.I.Anikin, V.Iskovich, M.A.Avlasevich, V.Ya.Plotkin, V.Barchunov, L.G.Xatiashvili, A.G.Rudnev, Ye.P.Sedun, I.A.Babakova A. Zohiriy, Behbudiy, Fitrat, Q.Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, G‘ozi Olim Yunusov, Sh.Zunnun, H.G‘oziev kabi tadqiqotchilar ish olib borganligini alohida ta’kidlash joiz. Keyingi yillarda esa kirish bo‘laklarning faqatgina gap bilan emas, balki matn bilan bog‘liq holda izlanishlar olib borgan tilshunoslar diqqatga sazovor.

A.A. Mesler o‘z ishlarida shunday yozadi: “...Parantez konstruksiyalarni gapdan katta lisoniy birlik bo‘lmish matn masshtabida tadqiq qilish, shubhasiz, katta ustunlikka ega, chunki bunday yondashuv mazkur muammoning turli jihatlarini integral (jamlangan holda) talqin qilishga va shu tariqa parantez konstruksiyalarning real lingvistik maqomini aniqlashga imkon beradi.”(6:1-128)

Shuningdek, “Parantez birliklarning gap va matnga munosabati” maqolasida Jamoldinova parantezalarni matn tarkibida tahlil qilish maqsadga muvofiq ekanligi, ularning semantiksintaktik va kommunikativ-estetik xususiyatlari matniy qurshovda

reallashishi va matn qurshovidan ajratib olinganda butunlay boshqa vazifani bajarishini ta'kidlagan(2:4). Shunday qilib, parantez birliklarning gap bilan munosabati gorizonta munosabat, matn bilan munosabati esa vertikal munosabat deb atala boshladi(2:5).

Darhaqiqat, ingliz va o'zbek tillarida kirish bo'laklar gapning o'zidagina sodir bo'lmaydi, kontekst bilan bog'liq holda vujudga keladi (ko'p xollarda gaplarni bir-biri bilan bog'laydi) va ulardagi ma'no butun gapgagina emas, kontekstga tegishli hisoblanadi. Quyidagi ingliz va o'zbek tillaridagi misollarni solishtirak:

Finally, tired of waiting, he bemoaned to Melquides the failure of his project(14:2).

Nihoyat, intiqlik joniga tekkach, Melkidesga, yana omadsizlikka uchradi deya hasrat qildi(15:5).

Yuqoridagi ikki gapda kirish bo'laklar oldingi kelgan gaplardan(he suffered of being silent on this matter-Bu haqda og'iz ocha olmaganidan ancha qiynaldi.) kelib chiqqan holda ishlatiladi. Demak, kirish bo'laklar o'z semantik va funksional jihatlarni ingliz va o'zbek tillarida matn doirasida namoyon qiladi va ulardagi ma'no nafaqat butun gapga balki kontekstga ham tegishli.

Kirish bo'laklarini sintaktik ifodalanishi ham anchagina xilma-xil. Bu ikki tilda kirish bo'laklar so'zlar(introductory words), so'z birikma (introductory phrases) va gaplar(parenthetical clauses) bilan ifodalanishi mumkin. Kirish so'zlar(introductory words) ingliz va o'zbek tillarida quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

Modal so'zlar(modal words): ehtimol, aftidan, shubxasiz; perhaps, certainly, maybe:

He had intended, probably, to take what he could and go(16:175).

Ehtimol, qiynalgan paytlari boshini olib ketmoqchi ham bo'lgan (9:131).

Son(numerals): birinchidan, ikkinchidan; firstly, secondly, thirdly:

Secondly, he can't do anything about it(16:5).

Ikkinchidan, bu yerda ikki qo'lini burniga tiqib o'tirishdan boshqa chorasi yo'q(9:7).

Ravish(adverbs): to'g'ri, yana; indeed, actually, suddenly:

Also, people always over-shoot downhill(17:81).

Yana, tepadan pastga otilganda doimo o'q mo'ljaldan o'tib ketadi(18:189). Ingliz va o'zbek tillarida undalmalar(kirish bo'laklar) otlar bilan ifodalanadi va ular ham kirish bo'laklar hisoblanadi:

"You're feeling it now, fish," he said(10:15).

Mazang qochyaptimi, baliq?— deb so'radi u(11:16).

N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning fikriga ko'ra o'zbek tilida kirish so'zlar fe'llar(aytaylik) va olmosh(menimcha, seningcha) bilan ham ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida esa kirishlar bu so'z turkumlari bilan ifodalanmaydi, lekin birikma holda kelganda ular bilan ishlatilishi mumkin(5:61). Kirish birikmalar(introductory phrases) ingliz va o'zbek tillarida quyidagi so'z birikma turlari orqali ifodalanadi:

Otli birikmalar(noun phrases):in any case, in fact, to his surprise on the contrary, as a result; mening fikrimcha, uning fikriga ko‘ra:

“I’m going in, in any case” Ursula warned them(14:57).

Mening fikrimcha, Melkiades bu rasmni ishlayotganda dekabrning ochiq kunlari edi(15:50).

Fe‘lli birikmalar(verb phrases): telling the truth, frankly speaking; rostini aytganda, to‘g‘risini aytganda, aksiga olib.

Telling the truth, it’s good that you’ve learned that everything in life has its price(13:11).

Rostini aytganda, dunyodagi hamma narsaning o‘z bahosi borligini bilib olganing yaxshi(14:37).

Ravish birikmalar(adverb phrases): as well, only then; bundan tashqari, buning ustiga.

Only then, with his right hand he felt the difference in the pull of the line before he saw the slant change in the water.(14:17)

Buning ustiga, safarga jo‘nash talato‘pida bir narsani umuman nazardan qochirgan ekan, bu esa xazinaga yo‘lni uzoq vaqt bog‘lab qo‘yishi mumkin(15:46).

Bundan tashqari, ingliz tilida kirish birikmalar sifat birikmalar(adjective phrases): in short, as usual; olmosh birikmalar(pronoun phrases: after all, above all, as to me, besides this) va son birikmalar(numeral phrases: at first)lar bilan ifodalanilishi mumkin. O‘zbek tilida esa bu birikmalar bilan ifodalanmaydi.

Gap bilan ifodalanuvchi kirishlar bog‘lovchi yoki bog‘lovchisiz bo‘lishi mumkin. Bog‘lovchili kirish gaplar: as you know, as I suppose; aytganimdek, bilasizki:

I drove back to Gorizia and our villa and, as I said, went to call on Miss Barkley, who was on duty(16:10).

Men, Gorisiyaga, o‘zimizning villaga qaytib keldim va boya aytganimday, mis Barklining oldiga jo‘nadim, u esa navbatchilik qilayotgan ekan(9:27).

Bog‘lovchisiz kirish gaplar: I think, you know, you see; men sizga aytsam, rostini aytsak:

I’m telling you, we are more dependent upon these things than is often thought for. (13:93)

Men sizga aytsam, biz bu masalalarga ko‘ringanidan ko‘ra ancha bog‘liqmiz.(12:104)

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kirish gaplar ishtirok etgan qo‘shma gaplar to‘g‘risida turli yondashuvlar mavjud. Ilyish o‘z ishlarida ularni qo‘shma gaplar(complex sentences with parenthetical clause) deb atagan(4:283). Lekin biz bu fikrni asosli deb hisoblamaymiz. Chunki bosh gap bilan kirish gaplar orasida ergashish munosabati(subordinate relation) emas, kirishish munosabati(introductory relation) mavjud. Prof G‘.M Hoshimov esa ularni murakkab qo‘shma gaplar(composite sentences with parenthetical clause) deb atagan.(8:54) Biz bu fikrni asosli deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Kirish bo'laklar nafaqat gapga butunligicha bog'lanib qo'shimcha ma'no kiritadi, balki A.A. Mesler va Jamoldinova tadqiq qilgandek matnni tashkil etishda xizmat qiladi va ulardagi ma'no gapgina emas kontekstdagi boshqa gaplarga ham taalluqli hisoblanadi. Shuningdek kirishlar so'zlar, so'z birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi. Kirish gapli qo'shma gaplarni qo'shma gaplarning qaysi turiga kiritish to'g'risida bir qancha yondashuvlar mavjud. Biz ulardan prof G.M Xoshimovning kirish gaplarni murakkab qo'shma gaplar bo'lishi va ular orasidagi munosabat kirishish deb atagan fikriga qo'shilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Востоков А.Х. Русская грамматика, Москва,1874;
2. Жамолиддинова Д.М. Кадирова М.Э, Султонова, “Парнтез бирликларнинг гап ва матнга муносабати”, Молодой ученый.-2016-№3.1;
3. Жамолиддинова Д.М. “ Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари”, Тошкент, “Фан”нашриёти, 2011;
4. Ильиш Б. The Structure of Modern English, Ленинград, 1971;
5. Махмудов Н. Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995;
6. Мецлер А.А. “Структурные связи в тексте (Парентезные конструкции)”, Кишинёв, Птиинца, 1987;
7. Пешковский А.М. Школьная и научная грамматика, Москва, 1914;
8. Хошимов F.M. Lectures on the Theory of Modern English Grammar, Andizhan-2017;

БАДИЙ АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

9. Абдуғаниева З. таржимаси “Буюк Гетсби”, “Шарқ”, Тошкент-2019;
10. Hemingway E. “The old man and the sea”, www.Asianing.com;
11. Ғофуров И. таржимаси, “Чол ва денгиз”, Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2015;
12. Носиров Э. таржимаси, “Бахтиқаро Керри”, “Шарқ”, Тошкент-2007;
13. Drieser T. “Sister Carrie”, University of Pennsylvania press, Philadelphia, 1981;
14. Marquez G. G. “One hundred years of solitude”, New York, Avon books, 1970;
15. Жўрабоев А. таржимаси, “Ёлғизликнинг юз йили”, Тошкент, “Шарқ”, 2014;
16. Fitzgerald S. “The Great Gatsby”, Diamond press, New York, 1924;
17. Hemingway E. “Farewell to arms”, <http://www.e-reading.co.uk>;
18. Ғофуров И. таржимаси, “Алвидо, қурол”, Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012